


---

## STATISTIKA: SO'X TUMANIDA TARIXDA ILK MAROTABA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH UCHUN 1 TRILLION 587 MILLIARD SO'M MABLAG' YO'NALTIRILADI



### **Statistika: So'x tumanida tarixda ilk marotaba loyihalarni amalga oshirish uchun 1 trillion 587 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi**

Davlatimiz rahbarining 2024 yil **11-12 iyul kunlari** Farg'ona viloyatiga hudud sanoati va infratuzilmasining rivojlanishi, mahallalarda olib borilayotgan yirik bunyodkorlik ishlari bilan tanishish, yangi yirik loyihalarga start berish yuzasidan tashrifi davomida bizga yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Shu bilan birga davlatimiz rahbarining 2024-yil 16-dekabrdagi 440-sonli qarorlariga asosan **So'x tumanini** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, ishga solinmagan imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish, aholining munosib turmush darajasi va bandligini ta'minlash bo'yicha **2025 yil uchun barcha yo'nalishlarda maqsadli ko'rsatkichlar** belgilanib olindi.

Jumladan,

---

**Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha:**

---

**2025-yil davomida sanoat mahsulotlarini** ishlab chiqarish hajmi – **167,4 milliard** soʻmga yoki **111 foizga**, **xizmat koʻrsatish** hajmi – **625.3 milliard** soʻmga yoki **114.6 foizga**, **qishloq xoʻjaligi mahsulotlari** hajmi – **661,9 milliard** soʻmga yoki **106,2 foizga**, **qurilish ishlari** hajmi – **222,4 milliard** soʻmga yoki **105,5 foizga** bajarilishi hamda **bandlikni taʼminlash dasturi** boʻyicha **13 009 ming** tadan ortiq yangi ish oʻrinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

#### **Tashkil etilgan loyihalar boʻyicha:**

Tumanda joriy yilda jami **1 388 ta** (*shundan makroloyihalar 280 ta, mikroloyihalar 1 108 ta, xorijiy investitsiya 28 ta*) loyihalarni amalga oshirish uchun jami **1 trillion 587 milliard** soʻm mablagʻlar sarflanishi rejalashtirilgan va buni hisobiga **5 804 nafar** yangi ish oʻrinlari yaratiladi.

#### **Zayliddin Iskandarov - Soʻx tumani iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi**

#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-24 18:36:01